

Natyurmort kompozitsiyasida yo‘l qo‘yiladigan xatolar va ularning oldini olish

Mohirjon Adhamjon o‘g‘li Oktabrov
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada natyurmort kompozitsiyasini tuzish va uni tasvirlash jarayonidagi muhim bosqichlar tahlil qilinadi. Natyurmort ko‘pchilikka soddadek tuyulsa-da, u rassomdan yuqori darajadagi kuzatuvchanlik, ijodiy tafakkur va nazariy hamda amaliy bilimlarni talab qiladi. Maqolada talabalar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan keng tarqalgan xatolar - buyumlarni mavzuga mos tanlamaslik, rang uyg‘unligini buzish, kompozitsiyani noto‘g‘ri joylashtirish kabi muammolar yoritilgan. Shuningdek, natyurmortni o‘qituvchi rahbarligida, talabalar faol ishtirokida tashkil etishning samarali usullari ko‘rsatib beriladi. Bu orqali talabalar buyum tanlash, ranglar uyg‘unligini topish, yorug‘-soya nisbatlarini aniqlash va umumiy koloritni shakllantirish ko‘nikmalarini egallaydilar. Natyurmort kompozitsiyasi san‘at asarining mazmuni, badiiy ifodasi va kayfiyatini belgilovchi eng muhim vosita sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: natyurmort, kompozitsiya, rang uyg‘unligi, kolorit, yorug‘-soya, ijodiy jarayon, tasviriy san‘at

Mistakes in still life composition and their prevention

Mohirjon Adhamjon oğlu Oktabrov
Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article analyzes the important stages in the process of composing and depicting a still life composition. Although a still life seems simple to many, it requires a high level of observation, creative thinking, and theoretical and practical knowledge from the artist. The article highlights common mistakes made by students - problems such as not choosing objects appropriate to the subject, violating color harmony, and improper placement of the composition. It also shows effective methods for organizing a still life under the guidance of a teacher and with the active participation of students. Through this, students acquire the skills of selecting objects, finding color harmony, determining light-shadow ratios, and forming a general color scheme. Still life composition is interpreted as the most important tool that determines the content, artistic expression, and mood of a work of art.

Keywords: still life, composition, color harmony, color, light and shadow, creative process, fine arts

Kirish: Natyurmort tasviriy san'at janrlaridan biri bo'lib, u oddiy ko'ringaniga qaramay, murakkab ijodiy jarayonni o'z ichiga oladi. Ko'plab talabalar natyurmortni mustaqil tuzish yoki tasvirlash jarayonida turli xato va kamchiliklarga yo'l qo'yadilar. Rangtasvir mashg'ulotlarida o'qituvchi tomonidan tayyor kompozisiya taqdim etilganda ham, talabalar ko'pincha buyumlarning joylashuvi, rang uyg'unligi yoki mavzu ifodasi haqida yetarlicha o'ylamay ish boshlaydilar. Natijada darsning maqsadi to'liq amalga oshmaydi, ijodiy samaradorlik esa past bo'ladi.

Talaba biror buyumni tasvirlashdan avval uning shakli, tuzilishi va o'ziga xos belgilarini sinchkovlik bilan o'rganishi zarur. Bu jarayon nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikma va muntazam mashqni ham talab etadi. Mashhur rassomlar ta'kidlaganidek, agar rassom bir kun chizishni to'xtatsa, o'z mahoratida ikki kun orqaga ketadi. Shu bois, talabalar har kuni naturadan rasm chizishni davom ettirishlari, tasviriy sezgirlikni yo'qotmasliklari lozim. Bunday kamchiliklarning oldini olish uchun o'qituvchi yangi mavzuni og'zaki tushuntiribgina qolmay, balki talabalar bilan birgalikda natyurmort qo'yilmasini tuzib chiqishi kerak. Masalan, 6-7 ta buyum taklif etilib, talabalarga ularning ichidan mavzuga mos keladiganlarini tanlash topshiriladi. Bu usul talabalarni tahliliy fikrlashga, mantiqiy tanlov qilishga va estetik qarorlar qabul qilishga o'rgatadi. Milliy buyumlardan tashkil topgan natyurmortlarda talabalar buyumlarning tashqi ko'rinishi, shakli va rang uyg'unligiga alohida e'tibor berishlari kerak. Ular har bir buyumni alohida tahlil qilib, kompozisiyada bir-birini to'ldiruvchi yoki kontrast hosil qiluvchi ranglar orqali uyg'unlik yaratishga intilishlari lozim. Ba'zan aynan kontrast ranglardan foydalanish natyurmortga o'ziga xos joziba bag'ishlaydi. Shu bilan birga, fon rangi ham buyumlar bilan uyg'un bo'lishi, umumiy koloritni buzmasligi kerak. Kompozisiyani tuzishda buyumlarning hajmi, shakli, rangi va joylashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Buyumlar orasidagi nisbat va ularning tasvir tekisligida joylashuvi - yonma-yon yoki oldinma-ketin qo'yilishi kompozisiyaning yaxlitligini ta'minlaydi. Bu bosqichni o'qituvchi rahbarligida bir necha marotaba takrorlagan talabalar keyinchalik natyurmortni mustaqil tuzish malakasiga ega bo'ladilar.

Natyurmortni chizishda kompozisiyani tuzishning o'zi kifoya emas - uni badiiy ifoda vositalari yordamida to'g'ri tasvirlash ham zarur. Talaba buyumlarni turli kuzatish nuqtalaridan xomaki chizmalar orqali sinab ko'rishi kerak. Bu usul eng qulay burchakni aniqlash va kompozisiyaning ta'sirchanligini oshirish imkonini beradi. Agar talaba turgan holda chizib, keyin o'tirib ishlasa, buyumlarning nisbatlari buziladi. Shuning uchun kuzatish holati va chizish holati bir xil bo'lishi kerak. Ijodiy natyurmort kompozisiyasi hayotiy voqealar va real buyumlarga asoslanadi. Uyning

kundalik buyumlari - idish-tovoq, meva-sabzavot, mato kabi narsalar yordamida qiziqarli va ma'noli syujetlar yaratish mumkin. Rangtasvirning bosh maqsadi - buyumlarning hajmini, materialini va rangini haqqoniy ifodalash hamda ularning bir butun koloritini saqlab qolishdir. Ko'pchilik talabalar chiziqli tasvir chizishda xato qilishadi, chunki ular har bir detalni alohida ishlashadi. To'g'ri yondashuv - avval kompozisiyaning umumiy o'lchamlarini aniqlab, so'ng buyumlarning konstruktiv tuzilishini topishdir. Yorug'-soya nisbatlari ham chiziqli tarzda belgilanadi. Agar talaba bu bosqichda xato qilsa, keyinchalik rang berishda uni tuzatish mushkul bo'ladi. Rang bilan ishlashda avvalo barcha buyumlarning konstruksiyasi to'g'ri aniqlangani tekshiriladi. Keyin akvarel texnikasiga amal qilgan holda, "ochdan to'qqa", "umumiydan xususiyga" prinsipi asosida rang berish jarayoni boshlanadi. Orqa fonni rangsiz qoldirish yoki ayrim buyumlarga ortiqcha ishlov berish natyurmortning yaxlitligini buzadi.

Yorug'-soya nisbatlari ranglar yordamida aniqlangach, har bir buyumning materialligi - ya'ni silliqligi, metall yoki mato yuzasi kabi xususiyatlar ko'rsatiladi. Rangdagi noaniqlik yoki begona tus butun koloritni buzadi. Shu sababli natyurmortning umumiy rang uyg'unligini saqlash rassom mahoratini belgilovchi asosiy omildir. Natyurmort tuzish - bu nafaqat texnik, balki ijodiy jarayon. Unda rassomning didi, dunyoqarashi va hissiyati yaqqol sezilib turadi. Natyurmort "jonsiz tabiat" deb ataladi, ammo undagi buyumlar tabiiylik, hayotiylik va hissiyot uyg'otgan taqdiridagina, u badiiy asar sifatida qadrlanadi.

Kompozisiya natyurmortning eng muhim qismi bo'lib, u buyumlarni joylashtirish, ranglar uyg'unligini topish va umumiy g'oyani ifodalash vositasidir. Rassom kompozisiya orqali o'z g'oyasini, hissiyotini va estetik qarashlarini ifodalaydi. Rang esa natyurmortning yuragi hisoblanadi - u tomoshabinning diqqatini yo'naltiradi, kayfiyat yaratadi va asarning mazmunini chuqurlashtiradi. Kolorit rassomning ichki holatini, obrazli fikrlashini va san'atga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. Kompozisiyaning yaxlitlik qonuni - san'at asarining bo'linmas bir butun sifatida qabul qilinishini anglatadi. Kontrast qonuni esa shakl, rang va holatlarni qarama-qarshi qo'yish orqali ifodaviylikni kuchaytiradi. Ushbu qonunlarga amal qilish natyurmortning badiiy ta'sirini oshiradi, obrazni jonli va tabiiy ko'rsatadi.

Xulosa: Natyurmort kompozisiyasini tuzish va uni tasvirlash - bu rassomdan texnik bilim bilan bir qatorda ijodiy tafakkur, estetik did va chuqur kuzatuvchanlikni talab etadigan murakkab badiiy jarayondir. Talabalar buyumlarni mavzuga mos tanlash, rang uyg'unligini topish, yorug'-soya nisbatlarini aniqlash va kompozisiyani to'g'ri joylashtirish orqali o'z amaliy malakasini mustahkamlashadi. O'qituvchi esa bu jarayonda yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va ijodiy fikrni rag'batlantiruvchi rolni bajaradi. Talabalarni mustaqil tahlil qilish, estetik qaror qabul qilish va badiiy yechim topishga o'rgatish - o'qituvchining asosiy vazifasidir. Natyurmort san'atida

kompozisiya, kolorit, kontrast va rang uyg'unligi kabi elementlar bir-biri bilan uyg'unlashgan holda asarning umumiy g'oyasini ochib beradi. Shu bois natyurmort - jonsiz buyumlar orqali hayotiylik, hissiyot va badiiy ifodani mujassamlashtiruvchi muhim janr bo'lib, tasviriy san'atda alohida o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komoldinov, S., & Ubaydullayeva, M. (2025). O 'RAL TANSIQBOYEV IJODIDA O 'ZBEKISTON TABIATINING IFODA ETILISHI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 268-272.
2. Abdiraslov, S., & Komoldinov, S. (2025). QALAMTASVIR MASHG 'ULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 24-28.
3. Jomoldin o'g'li, K. S. SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT.
4. Adhamjon o'g'li, O. M. (2025). INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BOLALARINI DEKORATIV RASM CHIZISHGA O 'RGATISHNING DIDAKTIK AHAMIYATI. IMRAS, 8(6), 142-147.
5. Adhamjon o'g'li, O. M. (2025). NATYURMORT TUZISH VA UNI TASVIRLASH USULLARI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 3(33), 75-80.
6. Adhamjon o'g'li, O. M. (2024). QAYSI BIRI YAXSHIROQ: NATURADANMI YOKI FOTOSURATDANMI?. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(31), 222-225.
7. Sattarov, F., & Ashanova, G. (2025). TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA PEDAGOGIK RASM CHIZISHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 145-149.
8. Sattarov, F., & Abdulaxatova, F. (2025). KUNDALIK HAYOT MAVZULARDAGI DASTGOHLI RANGTASVIRIGA OID MAVZULI KOMPOZITSIYA ISHLASH. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 141-144.
9. Sattarov, F. (2025). ZAMONAVIY BINOLARDA INTERER DIZAYN QISMIDA ZAMONAVIY TASVIRIY SAN'AT. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 15-18.
10. Islomovich, S. F. (2023). RANGTASVIRDA MANZARA JANRINING O'ZIGA XOS TOMONLARI. EDUCATION, 2(16), 269.
11. Болтабоев, А. (2023). Приемы выполнения черновиков в процессе обучения студентов на занятиях изобразительного искусства. Общество и инновации, 4(4/S), 209-213.

12. Xasanboy o'g'li, B. A. TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. Economy and Innovation ISSN, 2545-0573.

13. Xasanboy O'g'li, B. A. O'quv jaryonida qalamchizgi va qoramalarni bajarishda talabalarni kasbiy-pedagogik kompetensiyasini rivojlatnirish texnologiyasi. Scientific bulletin of namsu-научный вестник намгу-namdu ilmiy Axborotnomasi-2023-yil_7-son.

14. Raximov, H., & Abdullayeva, S. (2025). 5-SINF O 'QUVCHILARIGA TASVIRIY SAN'AT MASHG 'ULOTLARIDA NATYURMORT ISHLASHNI O 'RGATISH. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 191-195.

15. Raximov, H., & Abdinabiyeva, M. (2025). O 'QUVCHILARGA KULOLCHILIK SAN'ATINI O'RGATISHNING NAZARIY MASALALARI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 219-223.

16. Raximov, H. (2025). O 'QUVCHILARGA MANZARA JANRINI O 'RGATISHDA INNOVATION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI O 'RNI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 214-218.

17. Umarjon o'g'li, H. R. (2021). Technologies for Improving Composition and Drawing Skills Based on the Rules of Composition. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 765-767.

18. Раҳимов, Х. (2023, December). ТАСВИРИЙ САНЪАТ НАМУНАЛАРИ ОРҚАЛИ САНЪАТШУНОСЛИК СОҲАСИГА ТАЙЁРЛАШ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions" (Vol. 1, No. 01).

19. Abdullayev, O. E. (2021). The impact of historical monuments on human spirituality. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 263-268.

20. Shokirjonovna, S. G., & Ergashevich, A. O. (2024). THE TECHNOLOGY OF CREATING A THEMATIC COMPOSITION: INTERPRETING COMPOSITIONAL ISSUES IN PAINTINGS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(2), 12-14.

21. Ibrokhimjonovna, K. I., & Ergashevich, A. O. (2024). EXPLORING THE SCIENTIFIC CHANGE OF COLOR RELATIONSHIPS IN THE LANDSCAPE GENRE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(2), 18-21.

22. Abdullayev, O. E. (2021). Establishment and development of Uzbek theater. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 434-440.

23. Badriddinovich, O. B. (2024). TASVIRIY SAN'AT RIVOJIDA UYG'ONISH DAVRI AHAMIYATI. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7, 6-10.

24. Suyarov, N. T., & Erkaev, E. T. (2021). IMPLEMENTATION OF NATIONAL-REGIONAL COMPONENT IN THE EDUCATIONAL PROCESS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(08), 117-121.

25. Suyarov, N. T. (2021). Implementation of the national-regional component in the educational process. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 511-514.

26. Suyarov, N. (2019). TIPS AND METHODS OF USING NATIONAL FOLKLORE IN APPLIED ART LESSONS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(3), 321-325.

27. Nabiyeu, B., & Usmonova, Y. (2025). NATYURMORT JANRINING RIVOJLANISH TARIXI VA BOSQICHLARINI O'RGANISHNING AHAMIYATI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 196-200.

28. O'G'Li, B. A. A., & Anvarova, X. I. Q. (2025). Ranglarning xususiyatlari va insonlarga ta'siri. Science and Education, 6(6), 753-757.

29. O'G'Li, B. A. A. (2021). Talabalarda kompozisiya tuzish va tasvirlash mahoratlarini takomillashtirishda shakllarni masofada ko'rish texnologiyalarini rivojlantirish. Science and Education, 2(9), 333-343.